

---

## FERGANA CUPA XALQARO TURNIR

Joriy yil 4-12 avgust kunlari Farg'ona shahridagi «Istiqlol» tennis majmuasida tennis bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va qizlar o'rtasida «**Fergana CUP**» xalqaro turniri bo'lib o'tdi.

Turnir O'zbekiston va Osiyo tennis federatsiyasi hamkorligida o'tkazildi. Mazkur xalqaro turnirda 16 ta davlatdan 102 nafar sportchi qatnashdi.

Musobaqa natijalariga ko'ra **QIZLAR** o'rtasida **JUFTLIK** bahslarida **1-O'RINNI** Kseniya Domenina (Rossiya) va Taisya Paskalyova (Rossiya) juftligi, **2-O'RINNI** Yuliya Kim (O'zbekiston) va Mai Napatt Nirundorn (Tailand) juftligi egalladilar. **O'G'IL BOLALAR** o'rtasida **juftlik bahslarida 1-o'rinni** Marko Furlanetto va Mishele Vianello (Italiya) juftligi, **2-O'RINNI** Sultan Narbekov va Beibit Jukaev (Qozog'iston) juftligi egalladilar.

O'smirlar va qizlar o'rtasidagi yakkalik bahslarining final o'yinlarida o'smirlar o'rtasida Sergey Fomin (O'zbekiston) va Adam Nagoudi (Tunis) bellashdilar. Yakunda Sergey Fomin (O'zbekiston) **1-**, Adam Nagoudi (Tunis) **2-O'rinni**egalladilar.

Qizlar o'rtasidagi yakkalik bahslarining final o'yinida Taisiya Pachkalyova (Rossiya) va Zeyneb Shonmez (Turkiya) o'zaro bellashadilar. Natijada Taisiya Pachkalyova (Rossiya) **1-O'RINNI**, Zeyneb Shonmez (Turkiya) **2-O'RINNI** egalladilar.

G'olib va sovrindorlar qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Taqdirlash marosimida viloyat hokimining o'rinbosari I.A.Nosirov ishtirok etdi.

2017-08-21 12:04:13